

## TIJORAT BANKLARIDA KREDIT QO‘YIMLARINING TARKIBI TAHLILI VA ULARNI BOSHQARISHDAGI RISKLAR

*Raxmonov Hamza Akramjon o‘g‘li*  
*Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi barcha operatsiyalar banklar orqali amalga oshiriladi va albatta bu operatsiyalarda risklar yuzaga keladi. Tijorat banklari faoliyatida maksimal daromadga erishishni aniq maqsad qilib bajarilayotgan riskli operatsiyalar natijasida albatta daromadga erishilishiga olib keladi va bu bank boshkaruvining kabul kiladigan qarorlariga ayniqsa bog`liqdir.

Tijorat banklarining riskli operatsiyalari bir tomondan iqtisodiyotning barcha sektorlarida bank-moliya xizmatlarini kursatadi, jamiyatning iktisodiy talablarini qondirib, butun jamiyat kapitalini oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mablag‘larini samarali obyektlariga joylashtirilishi banklarning iqtisodiy subyekt sifatidagi daromadini oshiradi. O‘z navbatida, bank kredit qo‘yilmalarining ikki jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar ekan. Birinchidan, banklar tomonidan kredit portfelining tarkibining barqarorligi baholansa, ikkinchidan monetizatsiya koeffitsiyentining Markaziy bank tomonidan tartibga solib turilishida kredit qo‘yilmalarining mamlakat miqyosidagi hajmining YaIMga nisbatan ulushi aniqlanadi va baholanadi. Ikkinchidan, bank kredit qo‘yilmalari mikroiktisodiy miqyosdagi barqarorlikni ta‘minlashda tadqiq etilishi lozim bo‘ladi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda kredit qo‘yilmalarining arzonlashuvi yoki qimmatlashuvi Markaziy bankning foiz siyosati orqali tartibga solinadi. Natijada, ushbu faoliyat iqtisodiyotdagi investitsion faollikning ortishi, narxlarning arzonlashuvi va aholining sotib olish qobiliyati barqarorlashuvini vujudga kelishiga xizmat qilishi lozim bo‘ladi.

1-jadval.

### Kreditning asosiy shakllari

	Kredit shakllari	Izox
1	Bank krediti	<ul style="list-style-type: none"> <li>Iqtisodiyotda juda keng tarqalgan kredit shakli bo‘lib, uning obekti pul mablag‘larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bunda qarz oluvchi sifatida xuquqiy shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat fuqarolari ishtirok etishlari mumkin. Qarz beruvchi sifatida esa fakatgina banklar qatnashadi.</li> </ul>

2	Davlat krediti	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kreditlash aholiga sotiladigan davlat zayomlari, obligasiyalari bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlat jismoniy yoki yuridik shaxslardan karz oladi. Demak, davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi.</li> </ul>
3	Tijorat krediti	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bu sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bu kredit moliya va tovar krediti shaklidabo'lishi mumkin.</li> </ul> <p>Moliya krediti eksportyorlarga ayrim kredit bitimlari bo'yicha, importyorlarga sotib oladigan tovarlariga to'lashi uchun pul qarzi ko'rinishida beriladi.</p> <p>Tovar kreditida tovarlar nasiyaga beriladi, xaridor sotuvchiga o'z qarzini tasdiklovchi guvoxnoma-veksel beradi. Nasiyaga berilgan tovar necha so'm tursa, shu qarz miqdori hisoblanadi.</p> <p>Tovar krediti lizing shaklida ham bo'lishi mumkin. Lizing shartnomalari bo'yicha qimmat turadigan mashina va uskunalar karzga (ijaraga) olib ishlatiladi.</p>
4	Istemolchi krediti	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tijorat banklari tadbirkorlik uchun firmalarga karz bersa, istemolchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradi. Buning natijasida istemolchi krediti paydo bo'ladi. Bu kredit aholiga istemol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uyjoy xarajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam karzlari va boshqa ko'rinishlarda qarz beriladi. Bu fakat istemolni kondirishga xizmat kiladi.</li> </ul>
5	Xalqaro kredit	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bu muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz, shuning'dek, chet el obligasiyalari, chet el</li> </ul>

		korxonalarining aksiyalari va boshqa kimmatli kog'ozlariga foyda olish maksadlarida qo'yiladigan kapital.
6	Sudxo'rlik krediti	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bu kreditning o'ziga xos shakli. Xorijda kreditning bu ko'rinishi tarixan keng tarqalgan. Amalda bu kredit shakli Markaziy bank tomonidan tegishli lisenziyaga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan mablaglarni vaqtincha foydalanish uchun berish yo'li bilan amalga oshiriladi.</li> </ul> <p>Sudxo'rlik krediti ssuda foizining yuqori stavkasi bilan tavsiflanadi (120-180%).</p>

Manba: <https://sorbon.ru/cr/kredit-shakl/>

Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Birinchi holda ular to'g'ridan-to'g'ri muomalaga kirishadi. Ikkinchi holda ular aloqasi vositachilar orqali yuz beradi. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi subektlar, kredit obekti va maqsadini inobatga olgan holda kreditning quyidagi shakllari mavjud (1-jadval).


Umuman olganda, makroprudensial siyosatni amalga oshirilishiga zaruriyat tug'iladi. Yuqorida ta'kidlaganimiz, monetizatsiya koeffitsiyenti makroprudensial pul siyosatini amalga oshirishdagi bosh mezon sifatida qaraladi. Ushbu ko'rsatkich orqali iqtisodiyotning pul ta'minlanganlik darajasi, to'lovga qobillikning barqarorligi va inflyatsiyani jilovlash kabi moliyaviy siyosatlarni amalga oshirishga imkon beradi. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarini tadqiq etgan va ularni shakllanishida atroflicha ilmiy xulosalarni ishlab chiqqan rossiyalik olim prof. V.Senchagov (2005) monetizatsiya koeffitsiyentiga nisbatan o'zining munosabatini bayon etib o'tadi. Jumladan, davlat fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydigan investitsion faoliyatni amalga oshirsa, ishlab chiqarish jarayonlari hajmida yuqori texnologiyali mahsulotlar tashkil etsa pul aylanish tezligi sekinlashadi va aksincha, qisqa muddatli davrda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi pul aylanish tezligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, pul aylanish tezligining sekinlashishi bilan pul massasining ortishiga erishish monetizatsiya koeffitsiyentini barqarorlashtirishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Shu bilan birga, A.Kaygorodsev (2019) monetizatsiya koeffitsiyentining mezonlari haqida fikr yuritib, uning me'yori YaIMga nisbatan 70 foiz va minimal 50

foiz bo‘lishi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim elementi ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Shu boisdan, iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsiyenti inflyatsiyani keltirib chiqarmasligi uchun investitsiyalarni yuqori texnologiyali tarmoqlarga yo‘naltirishni tavsiya etadi. Umuman olganda, O‘zbekistonda monetizatsiya koeffitsiyentini oshirish imkoniyatini banklar kapital qo‘yilmalarini qaysi yo‘nalishlari orqali amalga oshirish mumkinligi yoki mavjud emasligini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizningcha, uzoq muddatli kredit qo‘yilmalarning ortishi iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsiyaviy faoliyatning shakllanishiga sharoit yaratib berayotganligini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, pulning arzonlashishi mumkinligiga olib borishi bilan izohlanishi mumkin. Bu borada, tadqiqotchi M.Ahmedov (2011) “uzun mablag‘lar” deganda moliyaviy muassasalar resurslari tarki-bidagi muddati jihatidan kamida 3 yil, bo‘lmasa 5 va 10 yildan ortiq muddatga saqlanadigan mablag‘lar nazarda tutiladi. Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, kredit muassasalarida “uzun mablag‘lar” salmog‘ining ortishi, nafaqat korxonalar tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish-ga, balki bundan tijorat banklari bu loyihalarda o‘z kredit resurslari bilan faol ishtirok etishiga xizmat qiladi” degan xulosani keltirib o‘tadi.

Ta’kidlash lozim, kreditlari qo‘yilmalari portfelida xorijiy valyutadagi kreditlarning yuqori bo‘lishi quyidagi murakkabliklarni keltirib chiqarish mumkin: – xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarga bo‘lgan sezuvchalik ortishi bilan ulardagi muammolarni milliy bank tizimiga ko‘chishi tezlashish mumkin. bu esa, bank riskini ortishiga olib kelishi mumkin. Natijada esa, banklar aktivlari sifatining pasayishi yuzaga kelishiga sharoit yaratiladi. Tanlangan banklarning kredit qo‘yilmalari rivojlanish tendensiyalarini tahlil etishga xarakat qilamiz.

## Tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi



Manba: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1710840/>

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikamiz tijorat banklari kredit portfelini ijobiy holatda deb aytishimiz mumkin. Chunki kredit portfelida standart kreditlarning ulushi jamiga nisbatan 95,2 foizni yoki 483 605,0 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda hamda NPL deb qaraluvchi kreditlar 4,8 foizni yoki 23 312,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlar jami kredit portfelidagi ulushi sezilarli darajada yuqori emas. Bu holat tijorat banklarimiz uchun ijobiy jarayon hisoblanadi.

Tijorat banklari yuqorida keltirilgan kreditlarning 5 ta sifat toifasi bo‘yicha, Markaziy Bankning 14.07.2015 yilda tasdiqlangan 2696-sonli “Aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga binoan mos ravishda standart-1%, substandard-10%, qoniqarsiz-25%, shubhali-50% va umidsiz-100% miqdorida zaxira ajratib boradilar.

Banklarning kredit kanallari orqali iqtisodiyotni qo‘shimcha mablag‘lar chiqarilishi inflyatsiyaga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmaydi, sababi O‘zbekistonda monetizatsiya ko‘ffitsiyenti yuqori emas. Shu boisdan, banklar tomonidan yuqori ilmiy sig‘imkor ishlab chiqarish tarmoqlarini kreditlashni kengaytirishi tavsiya etiladi; Tijorat banklarining kredit portfeli tarkibida, ayniqsa TIF Milliy bank faoliyatida

xorijiy valyutalar asosida berilgan kreditlarni hajmi yirik ulushga ega bo‘lmoqda. Bu esa, valyuta siyosati va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga bo‘lgan bank risklari sezuvchanligini oshishiga sabab bo‘lishi mumkin; Banklar faoliyati sanoat, ayniqsa Asaka ATB kreditlash amaliyotida sezilarli yirik ulushga ega bo‘lmoqda, lekin TIF Milliy bankda transport va kommunikatsiya tarmog‘i ham ustuvorlik kasb etmoqda; Moddiy va texnik ta‘minotni kreditlash tanlangan banklar uchun ustuvor kreditlash tarmog‘i sifatida aks etmagani yo‘q, uning jamidagi ulushi eng kichikni tashkil etmoqda; O‘rganilgan davrda tanlangan banklarning eng sezilarli risklaridan – bu kredit qo‘ymalarining tarmoqlar kesimida diversifikatsiya qilinmaganligi va ayrim tarmoqlariga yetakchilik qilishi buni yanada ortishiga olib kelmoqda; Tanlangan banklar davlat banklari bo‘lganligi sababli davlat dasturlari va islohotlarini amalga oshirishda o‘zining o‘rniga ega bo‘lmoqda va kredit liniyalarini tashkil etilishida ularning roliga e‘tibor qaratilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник / Под ред. В.К. Сенчагова. 2-е изд. — М.: Дело, 2005. — 896 с.
2. Кайгородцев А.А. Повышение уровня монетизации Российской экономики как фактор экономического роста //Научное обозрение. Экономические науки. – 2019.
3. Axmedov M.U. Tijorat banklari uzoq muddatli resurslarining iqtisodiyot rivojini ta‘minlashdagi ahamiyati//Iqtisod va moliya jurnali. –T.2011. -№6. – B.43-46.